

Zohidov Tesha Zohidovich



O'zbekiston Fanlar akademiyasining prezidenti (1952 – 1956-yy.)

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1952-y.), biologiya fanlari doktori.

Zoologiya sohasidagi olim, fan va ta'lif faollaridan biri, jamoat arbobi.

1906-yil 10-mayda Qo'qonda tavallud topgan.

1981-yil 21-avgustda vafot etgan. Toshkent shahrida dafn etilgan.

O'ZSSRda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi (1947-y.).

Beruniy nomidagi O'zSSR Davlat mukofoti laureati (1970-y.).

Xalqaro zoologiya akademiyasining haqiqiy a'zosi.

O'rta Osiyo davlat universitetini tamomlagan (O'ODU, 1931-y., hozirgi O'zMU).

Mehnat faoliyati davomida O'ODU assistenti, dotsenti, dekani, rektori, O'zbekiston KP MQ Fan va OO'YU bo'lim mudiri, O'zbekiston FA Parazitologiya zoologiyasi instituti direktori (asoschisi), O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, ToshDU kafedra mudiri va O'zbekistondagi boshqa mas'uliyatli boshqaruv organlari lavozimlarida ishlagan.

300 dan ortiq ilmiy ish, shuningdek 50 ta monografiya muallifi.

5 ta fan doktori va 25 ta fan nomzodini tayyorlagan.